

# “ZAMONAVIY TA’LIM: MUAMMO VA YECHIMLARI” ILMIY-AMALIY RESPUBLIKA KONFERENSIYASI

## KOMPOZITSIYA FANI TALABALARNI IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

*Sherali Ishankulov*

*Buxoro davlat universiteti*

*Annotatsiya. Qalamtasvir va rangtasvirda rassom bevosita kompozitsiya asoslariga murojaat qiladi, uning qonun-qoidalarini bilmay turib kompozitsiya, qalamtasvir, rangtasvir mohiyatini tushunib etmaydi*

*Kalit soʻzlar: Qalamtasvir, rangtasvir, rassom, kompozitsiya asoslari, qonun-qoidalar, mohiyat.*

Insoniyat tashqi dunyoni tasvirlashga intilishi juda qadim zamondan ma’lum. Ibtidoiy davridayoq odamlar mamont suyaklarida, g’orlarda toshlardagi chizgilarda maxoratga erishganlar. Ular xayotni zehn bilan kuzatsalarda kompozitsiya sezgisi juda bo’sh rivojlangan. Ularning tasviriy san’at namunalari tasodifiy emas, balki ko’p yillik mehnat tajriba natijasi ekanligiga guvoh bo’lamiz.

Qattiq jism inson qo’lida pichoq shakliga kelguncha uzoq muddatli bosqichlarni, tarixiy voqealarni bosib o’tgan. Inson qo’li bilan hayot uchun zarur bo’lgan mahsulot asbob – buyumlarni shakli, jihati avloddan – avlodga, otadan bolaga o’tish natijasida o’zgarib bordi. Hayotda inson qo’li bilan murakkab mehnat jarayoni orqali yuqori malakaviy bosqichga erishildi va uning sehrigar kuchi Rafael asarlarida, Poganin musiqasida namoyon bo’ldi. Odamlar o’zlariga boshpana qurishni, uy jihozlarini yaratishni, shuningdek tasviriy san’at vositalarini birdaniga anglamadilar. Inson ming yillar davomida to’plagan tajriba asosida tabiat dunyosini, qush va hayvonlarni chizgilarda tasvirlay boshlagan. Jonli kuzatish najasida rasm chizishni o’rgatish amalga oshirilgan.

Tasviriy san’atda qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya fanlari o’qitiladi. «Kompozitsiya» tasviriy va amaliy san’atning hamma turlari, janrlarida mavjud bo’lib, asarning asosiy negizini tashkil etadi.

Kompozitsiya soʻzi lotinchadan «kompositio» - ya’ni predmetlar bo’laklarini solishtirib, ma’lum tartibda yaxlit joylashtirish, g’oyaga muvofiq ijod qilish, bayon qilish, kompozitsiya tuzish demakdir.

Kompozitsiya o’quv predmet sifatida, qalamtasvir, rangtasvirdan keyin paydo bo’ldi va hozirda kompozitsiya kursi oliy ta’lim kasb-hunarlarini o’quv rejalariga kiritilgan.

Pedagogika universitetlarining san’at fakultetlarida kompozitsiya fani talabalarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bilan birga kompozitsiya qonun, qoidalarini, haqqoniy tasvirlash usullarini o’rgatadi.

Tasviriy san’atda kompozitsiya qalamtasvir, soya - yorug’, rang, havo va chiziq perspektivasi kabi tasviriy vositalar bilan yaratiladi. Kompozitsiya kursi talabalarni mustaqil ijodiy va pedagogik faoliyatida obrazli fikr yurgazishida katta ahamiyatga egadir. Kompozitsiya fani suhbat, ma’ruza va amaliy mashg’ulotlardan iborat. Kompozitsiyani asosiy qonun, qoidalari, usul va vositalari, talabalar tomonidan amaliy mashg’ulot va suxbatlar jarayonida mukammal

o'rganiladi. Kompozitsiya - o'quv predmeti haykaltaroshlik, me'morchilik, grafika, qalamtasvir, rangtasvir, san'at tarixi kabi mutaxassis fanlar bilan uzviy bog'likdir.

Qalamtasvir va rangtasvirda rassom bevosita kompozitsiya asoslariga murojaat qiladi, uning qonun-qoidalarini bilmay turib kompozitsiya, qalamtasvir, rangtasvir mohiyatini tushunib etmaydi. Ushbu kompozitsiya o'quv qo'llanmaning maqsadi tasviriy san'atning rivojlanish tarixi, badiiy ijodning asosiy qonun qoidalari, vositalari va ularni pedagogika universitetlarining Badiiy-grafika fakultetlarida o'qitish metodlari haqida tavsiyalar, tushunchalar beradi. Shuning uchun rassom - o'qituvchilarni tayyorlashda kompozitsiya fanining eng murakkab va muhim fan sifatida o'rganish tavsiya etiladi.

Tasviriy san'atda kompozitsiya qonun va qoidalari insoniyatning ibtidoiy taraqqiyot davridan boshlab shakllana boshlagan. Ibtidoiy davr odamlari hayotni zehn bilan kuzatsalarda, kompozitsiya sezgisi juda bo'sh rivojlangan. Bunday holatni odam gavdasi va hayvon podalarini tartibsiz, alohida tasvirida ko'rishimiz mumkin.

Qadimgi sharq, san'atidagi kompozitsiya ibtidoiy davrdan alohida farq qiladi. qadimgi sharqda kompozitsiya mavzusi tekislikda qat'iy ma'lum tartibda tasvirlanib, quldorlik jamiyatning (marosimlari) qonunlariga buysundirilgan.

Qadimgi misr san'atida kompozitsiyani dastlabki yangi usullari paydo bo'la boshlagan. Bu esa jamiyatda ijtimoiy hayotni ongli rivojlanishi natijasidir. Tasvirga chizgi, o'lcham, rang va tus munosabatlari yuqori darajaga ko'tarildi.

Qadimgi dunyo rassomlari tabiat yaratgan o'simlik, barg va gullarni tuzilishida, yil faslini ketma-ket kelishida simmetriya va ritm tushunchalarini anglab, o'z ijodiy asarlarida, kompozitsiyada qo'llay boshladilar. Shuning uchun qadimgi greklar relief, fronton kompozitsiyalarida ritm va simmetriyadan unumli foydalanganlar.

*Kompozitsiyaning asosiy qonun – qoidalari.* Har qanday ijodkor o'tmishdagi rangtasvir sana'ti ustalari merosini va tajribalarini o'rganish bilan birga, tomoshabinga chuqur ta'sir etuvchi tasvir, kompozitsiya qonun uslubiyatini ham o'rganadi. Amaliyotda kompozitsiyaning zarur unsurlari mavjud. Yaxlitlik qonuni, o'xshatish, kontrast qonun vositalari mazmuni va g'oyaga bo'ysinish kompozitsiyaning asosiy qonunlari hisoblanadi. Bu qonunning belgilari E.Kibrikning kitobida to'la va chuqur analiz qilib berilgan. Kompozitsiyada yaxlitlik belgisi qonuniga rioya qilinganligi sababli, san'at asari bo'linmas bir butun bo'lib ko'rinadi. Kompozitsiya yaxlitligida kompozitsiya elementlari shakl, hajm, «dog'», oraliq karakter nusxa, imo - ishora bilan ifodalanadi.

Kompozitsiyadagi omma - haloyiq tasviri diogonal joylashgan bo'lib, kartinani to'rt burchagini bog'lab turadi. Kartinada nihoyatda ko'p sonli haloyiq jamoa tasvirlangan bo'lib, har bir kishi karakteri, salbiy, ijobiy obrazlar orqali va sinfiy qarama - qarshiliklar, xullas rus jamiyati o'z ifodasini topgan.

Kompozitsiya haqiqat qonuni - asosan uchta belgi bilan ifodalanadi. Birinchi belgi bu badiiy asarda sodir bo'layotgan voqeaning o'ziga xosligi. A.Savrasovning «Qora qarq'alar uchib keldilar», I. Levitaning «Oltin kuz», A.Kuindjining «Qayinzorda», A.Rilovning «Havo rang kenglikda» manzaralarida mazmun, nafosat, bilan birga rus tabiatini o'ziga xos obrazi tasvirlangan. Tipizatsiya qonunining ikkinchi belgisi - bu sodir bo'layotgan voqea mavzuini, harakat holatini vaqtini tasvirlaydi.

Ayniqsa ko'p figurali kompozitsiya mavzudagi personajlarni har xil holatda aks ettirgan I.Repinning «Kutilmagan edi» asarida tamoshabin faqat personajlarni tasvirlangan holatini emas, balki ular hibsdan qaytgan erini tasodif ko'rishdan oldin nima ish bilan band, qanday holatda - ekanligini tasavvur qiladilar.

Adabiyotlar

1. Botirov, J. S., Bakaev, S. S., Avliyakov, M. M., Shirinov, A. L., & Abdullaev, S. S. (2021). The same goes for art classes in private schools specific properties. *Journal of Contemporary Issues in Business and Government Vol*, 27(2).
2. Samadovich, A. S., Ruzievich, S. T., Marufovich, B. M., & Mukhammedovich, A. M. (2021). THE ESSENCE AND CONTENT OF FOLK AND APPLIED ART OF UZBEKISTAN AND CENTRAL ASIA. *European science*, (2 (58)), 35-37.
3. Shirinov, A. L. (2021). Maktabning Eng Yosh O'quvchilarida Tasviriy San'at Darslarining Ahamiyati. *Ижтимоий Фанларда Инновация онлайн илмий журнали*, 1(6), 134-138.
4. ААзимова, Мухайё Баротовна, and Шерали Наимович Аvezов. "Костюмы в миниатюрах Мавераннахра." *Евразийский научный журнал* 2 (2017).
5. Азимова М. Б., Ибадуллаева Ш. И. XIX аср охири-XX аср бошларида Бухоро аҳоли турар жойлариинтерьер безаги (Файзулла Хўжаев уй-музейи мисолида) //Евразийский научный журнал. – 2017. – №. 2.
6. Сулаймонова, М. Б., Азимов, Б. Б., Азимова, М. Б., & Тухсанова, В. Р. (2021). ДОСТИЖЕНИЕ ЭСТЕТИЧЕСКОЙ И НРАВСТВЕННОЙ ЗРЕЛОСТИ ОБУЧАЮЩИХСЯ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМУ ИСКУССТВУ. *European science*, (3 (59)), 53-56.
7. Ширинов, А. Л., Батиров, Д. С., & Шомуродов, О. Н. (2021). ВАЖНОСТЬ ЦВЕТОВЕДЕНИЯ В ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМ ИСКУССТВЕ. *Наука и образование сегодня*, (5 (64)), 83-85.
8. Аминов, Акмал Шавкатович, et al. "ПРОБЛЕМЫ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ СТУДЕНТОВ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ." *European science* 2 (58) (2021): 77-79.
9. Мамурова Д. И. и др. УЧЕБНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ СТУДЕНТОВ ПО РЕШЕНИЮ РАЗЛИЧНЫХ ДИДАКТИЧЕСКИХ ЗАДАЧ В РАЗВИТИИ ПРОСТРАНСТВЕННОГО ВООБРАЖЕНИЯ СТУДЕНТОВ //European science. – 2021. – №. 2 (58). – С. 29-31.
10. Азимова М. Б., Азимов Б. Б., Тухсанова В. Р. ИСКУССТВО РОСПИСИ ТКАНЕЙ //European science. – 2021. – №. 2 (58). – С. 41-43.
11. Ядгаров, Н. Д., & Хакимова, Г. А. (2018). Самобытное творчество народных мастеров Узбекистана. *Молодой ученый*, (15), 272-275.
12. Хакимова, Г. А., & Кадилова, Н. А. (2021). НАСКАЛЬНАЯ ЖИВОПИСЬ В ПРОИСХОЖДЕНИИ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА. *Наука и образование сегодня*, (5 (64)), 78-80.
13. SI Ibadullaeva. PAVEL BENKOV'S LEGACY AT THE BUKHARA MUSEUM OF FINE ARTS. *International Engineering Journal For Research & ...*, 2020.
14. МБ Азимова, ШИ Ибадуллаева. XIX АСР ОХИРИ - XX АСР БОШЛАРИДА БУХОРО Аҳоли турар жойлариинтерьер безаги (Файзулла Хўжаев уй - музейи мисолида).
15. Ibadullaeva Shaxnoza Ihamovna. Avlikakulova Nafisa Muzafarovna., Sobirova Sharofat Umidullayevna. HARMONIZATION OF TYPES OF FABRIC ART PROCESSING TO STUDENTS..INTERNATIONAL JOURNAL OF PSYCHOSOCIAL REHABILITATION, 1-7 ISSN:1475-7192
16. Olimov, S. S., & Mamurova, D. I. (2021). Graphic Information Processing Technology and its Importance. *European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630)*, 10, 1-4.
17. Muzafarovna, A. N., Umidullayevna, S. S., & Ihamovna, I. (2020). Harmonization of types of fabric art processing to students. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(4), 176-184.
18. Avliyakov N. M. TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA DIDAKTIK PRINSIPLARDAN

FOYDALANISH YO'LLARI //Academic research in educational sciences. – 2021. – T. 2. – №. NUU Conference 1. – С. 179-181.

19. Abdurazzokovna R. N., Murotdilloevna A. M. SOME ASPECTS OF THE ORGANIZATION OF THE INDEPENDENT WORK OF THE FINE ARTS STUDENTS //European science. – 2021. – №. 2 (58). – С. 83-85.

20. Samadovich, Azimov Sanjar, et al. "THE ESSENCE AND CONTENT OF FOLK AND APPLIED ART OF UZBEKISTAN AND CENTRAL ASIA." *European science* 2 (58) (2021): 35-37.

21. Yadgarov, N. (2021). Methods of Building Visual 3D Models Based on Descriptive Geometry. *Middle European Scientific Bulletin*, 18, 242-246.

22. Ядгаров, Н. Д. (2020). Моделирование трехмерных геометрических фигур при помощи пакета 3DS MAX. *Вестник науки и образования*, (21-2 (99)), 97-101.

23. Yadgarov, N. J. "Methods using the 3ds max package in teaching projection drawing in school." *Euro-Asia Conferences*. Vol. 1. No. 1. 2021.

24. Азимов, С. С. (2020). Психологические аспекты формирования профессионального мастерства будущих учителей изобразительного искусства. *Вестник науки и образования*, (21-2 (99)), 105-108.

25. Жумаев, К. Ж., Ибатова, Н. И., Авезов, Ш. Н., & Ишанкулов, Ш. Ш. (2021). ИСТОРИЯ И РАЗВИТИЕ БАТИКА. *European science*, (2 (58)), 56-59.

26. Авезов, Ш. Н., Жумаев, К. Ж., Азимова, М. Б., & Ишанкулов, Ш. Ш. (2021). ИЗУЧЕНИЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ИСКУССТВА. *European science*, (2 (58)), 20-22.

27. Ишанкулов, Ш. Ш., Авезов, Ш. Н., Азимов, Б. Б., & Ибатова, Н. И. (2021). ЗНАЧЕНИЕ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ. *European science*, (2 (58)), 68-70.

28. Ибатова, Н. И., Авезов, Ш. Н., Жумаев, К. Ж., & Ишанкулов, Ш. Ш. (2021). НАТЮРМОРТ-ЖАНР СРЕДИ ДРУГИХ ЖАНРОВ. *European science*, (2 (58)), 53-56.

29. Ишанкулов Ш. Ш. Определение параметров стандартной изометрии при помощи способа прямоугольного вспомогательного проецирования //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 21-2 (99). – С. 108-111.